

ZIKRILLA NE’MAT IJODIDA VATAN VA VATANPARVARLIK MAVZUSI

BuxDU O’zbek adabiyoti (10.00.02)yo`nalishi Tayannch doktoranti (PhD)
Jo`rayeva Mexrigiyo Quvondiq qizi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23027679

Annotatsiya: Ushbu tezisda shoir Zikrilla Ne’mat ijodida Vatan tushunchasi va vatanparvarlik mavzusining o‘rni haqida so‘z boradi. Mazkur tuyg‘ularning inson hayotida tutgan o‘rni ijodkor she’rlarining tahlili orqali ochib beriladi. Ushbu mavzular orqali ulug‘langan sadoqat, adolat, tarixiy xotirani qadrlash kabi g‘oyaviy qarashlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: mavzu, Vatan, vatanparvarlik, sadoqat, g‘oya, ijodkor ruhiyati.

Аннотация: В данной тезисе рассматривается место понятия Родины и темы патриотизма в творчестве поэта Зикриллы Неъмата. Значение этих чувств в жизни человека раскрывается посредством анализа стихотворений поэта. В рамках данных тем освещаются такие идейные взгляды, как преданность, справедливость и ценность исторической памяти.

Ключевые слова: тема, Родина, патриотизм, преданность, идея, духовный мир поэта.

Abstract: This thesis examines the place of the concept of the Motherland and the theme of patriotism in the works of the poet Zikrilla Nemat. The significance of these feelings in human life is revealed through an analysis of the poet’s works. The study highlights such ideological values as loyalty, justice, and appreciation of historical memory, which are glorified through these themes.

Keywords: theme, Motherland, patriotism, loyalty, idea, poet’s spiritual world.

Badiiy adabiyotda Vatan tushunchasi insonning ona zamin, xalq, milliy qadriyatlar va tarixiy xotira bilan bog’liq ma’naviy munosabatlarini ifodalovchi muhim mavzulardan biridir. Shui boisdan ko`pchilik ijodkorlar bu mavzuga qo`l urmasdan qolmaydi. Chunki Vatan insonning hayotiy borligining bir bo`lagi hisoblanadi. Unga bo`lgan mehr va sadoqat esa insonni doimo yashashga bo`lgan qiziqishini oshirib, ertangi kunga bo`lgan yuksak ishonch hissini beradi. Negaki Vatanda har bir inson o`zini erkin va baxtli his qila oladi. Shu sababdan ham Vatanga sadoqat, el-u yurtga mehr singari tuyg`ular ijodkorlarni ushbu mavzuda ko`p-ko`p ijod qilishga undaydi.

Shoir Zikrilla Ne’mat Vafoiy ijodida ham ushbu mavzu alohida o`rin egallaydi. Shoirning har bir to`plamida Vatan va Vatanparvarlik tuyg`ularu ulug`langan ko`plab she’rlar uchraydi. Butun bir to`plamning o`zi ham Vatan, unga muhabbat, sadoqat va yurt osoyuishtaligi yo`lida jonni ham ayamaslik kabi g`oyalar ulug`langan she’rlardan iborat desak xato bo`lmaydi. **“Mangu qo`shig`imsan, Vatan”, “Mardi maydonlar yurti”** singari to`plamlari shular jumlasidandir. Ushbu mavzuda ko`p ijod qilishi uning asl kasbi bilan ham chambarchas bog`liqdir. Chunki shoir o`z ish faoliyatining ko`p qismini harbiylikda o`tkazgan. Ya’ni IIB xodimi bo`lib xizmat qilgan. Shu sababdan ham uning she’rlaridan ogohlik, Vatanga sadoqat, vatanparvarlik va jasurlik singari tushunchalar nafasi ufurib turadi. Bu esa shoirning fuqorolik pozitsiyasi kuchli ekanligidan dalolat beradi. Shoir ushbu g`oyalarni yosh avlod –

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

bolalarga yetkazib berish uchun ham chuqur estetik badiiyat bilan yondoshadi. Jumladan, uning “Mardi maydonlar yurti” to`plamidan o`rin olgan “Yosh vatanparvarlar qo`shig`i” nomli she’ri ham bolalar tilidan aytilganligi bilan ahamiyatlidi:

Biz ona yurt bag`rida,s ho`x-u xandon **bolamiz.**
O`sib-unib, tez kunda kuch-g`ayratga to`lamiz.
Jondek aziz Vatanga sodiq o`g`lon kerakdur.
Qalbi yoniq alanga, elga posbon kerakdur.
Naqarot
Vatan, Vatan, jon Vatan, senga fido jon-u tan,
Aziz farzandlaringmiz, seni sevgan jonidan.[2:12]

Yuqorida aytib o`tilganidek misralar yosh bola tilidan aytilgan va obraz sifatida ham bola obrazi keltiriladi. She’r bolalar yodlashi va tushunib olishi uchun oson tilda yozilgan. Bundan tashqari she’rda yosh avlod kelajakda qanday inson bo`lishi kerakligi, Vatani uchun doim har narsaga tayyor turishi kerakligi, har bir yoshning qalbi yoniq bo`lishi, Vatanni sevish kabi g`oyalar o`rin egallaydi.

Shoirga mustaqilligimizning 32 yilligi arafasida Prezidentimiz tomonidan taqdim etilgan “Do`stlik” ordeni berilishi ijodkorning shu munosabat bilan yozilgan “O`zbekiston bu” she’rining yozilishiga sabab bo`ldi. Bu haqida shoirning o`zi shunday deydi: “Aziz vatandosh, sizni mustaqilligimizning 32 yillik bayrami bilan chin qalbimdan tabriklayman. Bayram arafasida Prtezidentimiz farmonlariga muvofiq menga “Do`stlik” ordenining berilishi oddiy va kamtarin xizmatlarimga berilgan katta va yuksak bahodir. Buning uchun davlatimiz rahbariyatiga o`z minnatdorchiligimni izhor etama… To`yga to`yona bilan deganlaridek, jonajon O`zbekistonimizga atalgan bir she’rni o`qib bermoqchiman” . [1:19]

Istiqlol quyoshin yog`dusi bilan –
Hurlik so`zin yozdik samolarga biz.
Nurafshon kunlarning orzusi bilan,
Dil berdik nazm ila navolarga biz.[1:19]

She’rning birinchi bandi istiqlolga erishganligimizga shukronalik va yorug` kunlarning bizga erkin “nazm ila navo”larga dil berganimizni, ijodkorlarning va xalqimiz boshqa aholisining hurlikka erishganimiz munosabati bilan dilida paydo bo`lgan quvonch hissini ko`rsatib beradi. She’rning so`ngi bandida esa Vatanga muhabbat, Vatan himoyasi yo`lida sobit turishga tayyorlik, o`z yurtidan g`ururlanish tuyg`ulari aks etadi. Jumladan, “Hubbul vatan minal imani” – “Vatanni sevmoq iymondandir” ibratli so`zining isboti ham bandda mujassam:

Biz qalbga jo aylab nomus-iymonni
Shu yurt baxti uchun tikkanmiz jonni,
To tirikmiz jondek asrab yasharemiz –
Onamizday aziz qutlug` makonni.
Olamda yagona – O`zbekistonni! [1:20]

Xulosa qilib aytganda shoir ijodida Vatan tushunchasi, vatanparvarlik hissi kaba tushunchalar yuqori o`rin egallaydi. Shoir ushbu mavzu orqali o`z g`oyalarini kitobxonga ta’sirli holda yetkazib beriladi. Ijodkorning estetik mahorati ham turli badiiy vositalar va ma’nodor so`zlar orqali yaqqol namoyon bo`ladi.

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Ne’mat Z. Mardu maydonlar yurti: harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi she’rlar. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2019.
2. Ne’mat Z. Mangu qo‘shig‘imsan, Vatan: she’rlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
3. ZiyoUz. Ziyonet? [Elektron manba]. – Ziyouz.com
4. Vikipediya. [Elektron ensiklopediya]. – Wikipedia.org

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.